

100011, Toshkent shahri, Abay ko'chasi, 6-uy, Tel/Faks: 55-301-67-57, E-mail: davexpertiza@exat.uz, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig'i: Xayitov Bekzod Razzokovich

Sana: 19-08-2025 yil



YIG'MA EKSPERT XULOSASI

255356 - SONLI

Obyekt nomi: Guliston shahar, Namuna MFY, Bunyodkor ko'chasi, 152-uy hududida zamonaviy 1-qavati savdo va maishiy xizmat ko'rsatish obyektlari bo'lgan ko'p qavatli turar-joy binolarini loyihasi	
Buyurtmachi:	AZIZA CREDO MAX MCHJ
Bosh loyihachi:	"ANSORLOYIHA" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Ichki tendir savdolari natijalariga asosan
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	081133

1. Loyihalash uchun asos.

- 1.1 Sirdaryo viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasining 2025-yil 4-apreldagi "Arxitektura va shaharsozlik Kengashining" 1-sonli bayoni;
- 1.2 Guliston shahar qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limining 2025-yil 18-apreldagi 186762554-sonli ruxsatnomasi;
- 1.3 Sirdaryo viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi Yagona Interaktiv Davlat xizmatlari portali orqali 2025-04-25da 1724-1724401-222488-sonli Arxitektura rejalashtirish topshirig'i.
- 1.4 2024-yil "O'ZGASHKLITI" MCHJ tomonidan ishlab chiqilgan Geodezik va kortografiya, muhandis-geologik tadqiqotlar natijalari bo'yicha xulosasi.
- 1.5 Loyiha topshirig'i Buyurtmachi "AZIZA CREDO MAX" MCHJ tomonidan tasdiqlangan.
- 1.6 Buyurtmachi "AZIZA CREDO MAX" MCHJ hamda "ANSORLOYIHA" MCHJ o'rtasida 2025-yil 07-iyuldagi 17-sonli loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun shartnoma.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

- 2.1 Albom. Bosh reja.
- 2.2 Albom. Arxitektura qurilish bo'limlari.
- 2.3 Albom. Ichki elektr ta'minoti, ichki suv va oqova suv ta'minoti, ichki issiqlik tizimi, yong'indan ogohlantirish va aloqa tizimi bilan Noananaviy energiyadan foydalanish quyosh panellari va maxsus spetsifikatsiyalar.

2.4 Harakati cheklangan odamlar uchun qulay foydalanishni ta'minlaydigan yechimlar (NBSH), qo'shimcha inshootlar.

2.5 Muhandislik-geologik xulosa.

2.6 Smeta hujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

Bino						
Turi	Nomi	Qavati	Qurilish maydoni	Umumiy maydoni	Xajmi	Xonadonlar soni
Ko'p xonadonli turar joy binosi	BLOK-1 (2 DONA)	9	1553.4	7608.36	44764.6	80
Ko'p xonadonli turar joy binosi	BLOK-2 (2 DONA)	9	1183.2	8375	47055.8	80
Ko'p xonadonli turar joy binosi	BLOK-3 (1 DONA)	9	591.6	4066.4	23527.9	40
Jami:			3327	20049	115346	200

3.1 Qurilish maydonining xususiyatlari. Loyihalangan bino va inshootlarning asosini IGE №2 suglinok va supes qatlamlari, jigarrang rangli, yer osti suvlari darajasidan past bo'lgan va kapillyar ko'tarilish zonasida joylashgan, o'rta qattiqdan oquvchan konsistensiyaga qadar va kam uchraydigan kichik raqobatdan tashkil topgan — mexanik xossalari $\gamma_1=1.90$ t/m³, $S=5.50$ KPa, $\varphi=24^\circ$. Elementlarning quvvati 17.7-17.8m gacha. Tuproqlarning uglerodli po'latga nisbatan korroziyali agressivligi o'rta. Yer osti suvlari 1.20m chuqurlikda mavjud yer sathidan. IGE №1 qatlam cho'kuvchanlik turi I tur. Mavsumiy muzlashning maksimal chuqurligi 0.48-0.70m. Qurilish maydonining zilzilabardoshlilik 7 ball. Tuproqlarning zilzilabardoshlilik toifasi uchinchi hisoblanadi. Qurilish maydonining taxminiyl zilzilabardoshlilik 8 ballni tashkil etadi.

3.2 Texnologik yechimlar. SHNK 2.08.01-24 "Turarjoy binolari" va SHNK 2.08.02-23 "Jamoat binolari va inshootlari", talablarini loyihalash bo'yicha tasdiqlangan topshirig'iga muvofiq texnologik yechimlar qabul qilindi va Buyurtmachi bilan kelishilgan.

3.3 Hudud. "AZIZA CREDO MAX" MCHJ tomonidan "Zamonaviy birinchi qavati qavati savdo va maishiy xizmat ko'rsatish obyektlariga ega bo'lgan ko'p qavatli turar-joy" binosi qurish uchun tanlangan yer maydonining bosh rejadagi tutgan o'rni: Tanlangan yer maydoni Guliston shahar Namuna MFY, Bunyodkor ko'chasi, 152-uy hududida joylashgan.

3.4 Bosh reja. Bosh reja bo'yicha bloklar umumiy soni besh donadan iborat, bloklar bo'yicha loyiha smeta hujjatlari ishlab chiqilgan. Obyektning umumiy bosh rejasi amaldagi me'yorlarga muvofiq ravishda ishlab chiqilgan. Loyihada qiyalik yaratish va mavjud relyef hududdan yomg'ir suvini oqishi va yashil maydonlarni sug'orish imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil qilindi. "Zamonaviy birinchi qavati qavati savdo va maishiy xizmat ko'rsatish obyektlariga ega bo'lgan ko'p qavatli turar-joy" binosi qurish ishlarining umumiy yer maydoni 9279 kv.m joyni tashkil etadi. Loyihalashtirish uchun tanlangan yer maydoni quyidagicha chegaralangan: Shimol tomondan - ichki yo'l bilan chegaralangan; Janub tomonda - mavjud bino hududi bilan chegaralangan; Sharq tomondan - ichki yo'l bilan chegaralangan; G'arb tomondan - temir yo'l hududi bilan chegaralangan. Loyihada quydagilar rejalashtirilgan bir podezli 9 qavatli turarjoy binosi (besh dona), yer osti va yer usti avtoturargohlar, bolalar maydonchasi, sport maydonchasi, chiqindi tashlash maydonchasi, o't o'chirish gidrantlari yo'l va yo'laklar rejalashtirilgan, Shuningdek Qurilish bosh boshqarmasi huzuridagi arxitektura-shaharsozlik kengashi tomonidan 2025-06-20 dagi 197154424-sonli ijobiy xulosa berilgan.

Texnik iqtisodiy ko'rsatgichlar (bosh reja).

Umumiy chegaraviy maydoni — 9279m²

Qurilish maydoni — 3110.1m²

Yo'l va yoo'laklar - 4087.2m²

Obodonlashtirish maydoni -2081.7m²

Loyihada quyidagilar ta'minlanadi: Arxitektura va qurilish yechimlari.

Blok-1 (2 dona)

Loyihalashtirilgan hududda bino o'lchami 28.4x21.2m konstruktiv yechimi ramali 9 qavatli yer to'la balandligi 2.49m birinchi qavat balandligi 3.67m, yuqori qavatlar balandligi 3.07m. Binoda yuk ko'taruvchi va yo'lovchilarni tashish uchun bir dona lift ko'zda tutilgan.

Yerto'la qismida kirish zali, lift shaxtasi, zinapoya, avtoturargoh, omborxona texnik xonalar joylashtirilgan. Bino yer to'lasida avtomatik yong'in o'chirish ko'zda tutilgan.

Birinchi qavatda — zinapoya, kirish zali, lift shaxtasi, savdo maydonlari(14 dona), hojatxona va qo'l yuvish xonalari joylashtirilgan. NBSHlar uchun hojatxonalar va kirish zinapoyalari oldida elektron panduslar ko'zda tutilgan.

Ikkinchi - to'qqizinchi qavatlarda — zinapoya, kirish zali, lift shaxtasi, xonadon oldi maydoni, lodjiya, har bir qavatda 2xonali xonadon (4dona) va 1+studiyali xonadon (1 dona) joylashtirilgan. Beshinchi-to'qqizinchi qavat ochiq balkon pollarida evakuatsiya chiqish tuynuklari va narvonlari ko'zda tutilgan.

2 dona bino uchun jami $40+40=80$ ta xonadondan iborat.

Blok-2 (2 dona)

Loyihalashtirilgan hududda bino o'lchami 30.9x18,5m konstruktiv yechimi ramali 9 qavatli yer to'la balandligi 2.49m birinchi qavat balandligi 3.67m, yuqori qavatlar balandligi 3.07m. Binoda yuk ko'taruvchi va yo'lovchilarni tashish uchun bir dona lift ko'zda tutilgan.

Yerto'la qismida kirish zali, lift shaxtasi, zinapoya, avtoturargoh, omborxona texnik xonalar joylashtirilgan. Bino yer to'lasida avtomatik yong'in o'chirish ko'zda tutilgan.

Birinchi qavatda — zinapoya, kirish zali, lift shaxtasi, savdo maydonlari(10 dona), hojatxona va qo'l yuvish xonalari joylashtirilgan. NBSHlar uchun hojatxonalar va kirish zinapoyalari oldida elektron panduslar ko'zda tutilgan.

Ikkinchi - to'qqizinchi qavatlarda — zinapoya, kirish zali, lift shaxtasi, xonadon oldi maydoni, lodjiya, har bir qavatda 2xonali xonadon (4dona) va 1+studiyali xonadon (1 dona) joylashtirilgan. Beshinchi-to'qqizinchi qavat ochiq balkon pollarida evakuatsiya chiqish tuynuklari va narvonlari ko'zda tutilgan.

2 dona bino uchun jami $40+40=80$ ta xonadondan iborat.

Blok-3 (1 dona)

Loyihalashtirilgan hududda bino o'lchami 30.9x18,5m konstruktiv yechimi ramali 9 qavatli yer to'la balandligi 2.49m birinchi qavat balandligi 3.67m, yuqori qavatlar balandligi 3.07m. Binoda yuk ko'taruvchi va yo'lovchilarni tashish uchun bir dona lift ko'zda tutilgan.

Yerto'la qismida kirish zali, lift shaxtasi, zinapoya, avtoturargoh, omborxona texnik xonalar joylashtirilgan. Bino yer to'lasida avtomatik yong'in o'chirish ko'zda tutilgan.

Birinchi qavatda — zinapoya, kirish zali, lift shaxtasi, savdo maydonlari(4 dona), hojatxona va qo'l yuvish xonalari joylashtirilgan. NBSHlar uchun hojatxonalar va kirish zinapoyalari oldida elektron panduslar ko'zda tutilgan.

Ikkinchi - to'qqizinchi qavatlarda — zinapoya, kirish zali, lift shaxtasi, xonadon oldi maydoni, lodjiya, har bir qavatda 2xonali xonadon (4dona) va 1+studiyali xonadon (1 dona) joylashtirilgan. Beshinchi-to'qqizinchi qavat ochiq balkon pollarida evakuatsiya chiqish tuynuklari va narvonlari ko'zda tutilgan.

1 dona bino uchun jami 40 ta xonadondan iborat.

Binolar bo'yicha Texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari:

Kvartiralarining umumiy yashash maydoni - 7108.0 m²

Kvartiralarning umumiy maydoni balkonsiz – 15135.6 m²

Kvartiralarning umumiy maydoni balkoni bilan birga(koef. 0.3) – 26784.76 m².

Noturar maydonlar – 1020.2 m².

Yer to'la maydoni – 2690.5 m².

Qurilish hajmi – 115348.3 m³

Qurilish hajmi yer ustidan – 105831.3m³

Qurilish hajmi yer osti – 9517.0m³

Qurilish maydoni – 3328.2 m²

Konstruktiv sxema.

Fasadning me'moriy yechimlari.

Poydevorning yer ustki qismi (Sokol) – penopolistirol izolyatsiya, sopol plitkali qoplama bilan qoplangan.

Devorlar – fasad to'rlarida bazalt asosidagi izolyatsiyalash bilan yaxshilangan gips bilan devorlarni suvoqlash va "Travertin" dekorativ devor bezagi bilan qoplash.

Konstruktiv yechimlar: seysmik yuklarni qabul qiluvchi devorlari ishtirok etmaydigan monolit temir-beton rama va diagfragma bilan ishlab chiqilgan. Bino ramali gazablok to'ldiruvchi devordan iborat yechim, uning fazoviy rama va diagfragma va qoplamaning temir-beton diskining ishi bilan ta'minlanadi KMK 2.01.03-2019, 3.1- jadval 1.2.2 b)-band asos.

Poydevorlar – B25 sinfidagi betondan tayyorlangan monolitik temir-beton poydevor plita.

B25 sinfidagi betondan yasalgan monolitik temir-beton devorlar.

Diagfragmalar – B25 sinfidagi betondan tayyorlangan monolitik temir-beton.

Kolonna va rigellar – B25 sinfidagi betondan tayyorlangan monolitik temir-beton.

Devorlari – 300mm qalinlikda gazablok D600Kg/m³ bloklar va metal karkas bilan kuchaytirish ko'zda tutilgan.

Kvartiralarni bo'luvchi pardevorlar – 120mm qalinlikda gazablok D600Kg/m³ bloklar va metal karkas bilan kuchaytirish ko'zda tutilgan.

Kvartiralarni ichki bo'luvchi pardevorlar – gazobloklardan iborat.

Tomyopma va orayopma – B25 sinfidagi betondan tayyorlangan monolitik temir-beton bilan qoplangan.

Zinapoyalar – B25 sinfidagi betondan tayyorlangan monolitik temir-betonlardan.

Tom qoplamasi – bug'ga qarshi himoya qatlam, penopolistrol bilan himoyalangan va yuqori qismiga reberoid va beton qoplamasidan tashkil topgan yumshoq tom qoplamasi va ichki suv qochirish ko'zda tutilgan.

Buyurtmaching topshirig'iga va 2025-yil 19-maydagi 19-05/16xatiga asosan 9 qavatli turar-joy binosini qurilishi obyekti loyihasi "Ipoteka kreditidan foydalanishda aholiga qo'shimcha qulayliklar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident (PQ-377-son, 22.09.2022yil.) qarorning 3-so'z boshiga keltirilgan talab asosida, xususiy pudrat tashkiloti tomonidan qurilgan uylardagi kvartiralarni (xonalarga bo'lingan va pardoqlash ishlariga tayyor) holga keltirib qurib bitkazish inobatga olinib loyihalashtirilgan.

Eshik romlari — metal va LMDF eshik romlaridan ichki MDF eshik romlari smetada hisobga olinmagan.

Pol qoplamasi, beton asosli laminat va keramik plitkalar pollar tarkibi faqatgina beton asosdan tashqari qatlam hisobga olinmagan.

Deraza romlari – ikki qavat oynalar bilan qoplangan metall-plastmassa profillardan, PVX deraza tokchalari pvxdan.

Ichki pardoqlash – devorlarni yaxshilangan suvoq bilan suvoqlash va suvli emulsiya bilan bo'yash, shift choklarini to'ldirish va suvli bo'yoq bilan bo'yash, suvoq qatlamdan tashqari bezak berish ishlari hisobga olinmagan.

Harakati cheklangan odamlar uchun qulay foydalanishni ta'minlaydigan yechimlar.

Loyihada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarga qulay va to'siqlarsiz muhit yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ266-son qaroriga muvofiq zinalarda panduslar o'rnatish, yo'laklarda ko'zi ojiz shaxslar harakatlanishi uchun taktil qoplama bilan jihozlanishi, shuningdek hojatxonalarda alohida kabina va avtoturargohda nogironligi bo'lgan shaxslar uchun joy ko'zda tutilgan.

Korroziyadan himoya qilish. Binoning poydevori ostida gruntни bostirish va 4000 mm GPS ustida beton B 7.5 amalga oshiriladi qalinligi 100mm va orasida 2 qavat suvdan himoya qatlam yotqizish ko'zda tutilgan. Turar-joy binosi poydevorining yon sirtlari qalinligi 1 qavat suvdan himoya qatlami bilan yopishtirilgan. Yer osti inshootlari uchun GOST 10178-85* bo'yicha Portland sementida namga bardoshli normal o'tkazuvchanlik betoni qabul qilingan.

3.6. Energiya samaradorlik.

Energiya samaradorlikni ta'minlash uchun quyidagi energiya tejovchi texnologik yechimlar qabul qilingan:

- devorlari zichligi $\gamma=125$ kg/m³, qalinligi 50-100 mm bo'lgan bazalt plitalardan devor termoizolyatsiyasi bajarilgan (termoizolyatsiyaning ikkinchi darajasi);
- tomyopma termoizolyatsiyasi zichligi $\gamma=140$ kg/m³, qalinligi 80 mm bo'lgan penopolistiriol plitalardan qoplama termoizolyatsiyasi bajarilgan (termoizolyatsiyaning ikkinchi darajasi);
- tomda quyosh panellari, quyosh kollektorlari o'rnatilgan;
- FIK yuqori samarador radiatorlar va isitish uskunalaridan foydalanilgan va boshqalar;
- yoritish svetodiodli sensorli datchikli chiroqlar orqali bajarilgan va boshqalar;

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

Buyurtmaching topshirig'iga asosan muhandislik tarmog'i ya'ni tashqi suv va oqava suv tarmog'i, tashqi issiqlik ta'minoti, tashqi gaz tarmog'i, tashqi elektr ta'minoti loyihalash ishlari keyingi bosqichda loyihasi ishlab chiqiladi va ijobiy ekspertiza xulosasi olinishi sharti bilan ijobiy xulosa berildi.

Ichki suv ta'minoti va oqava suv tarmoqlari. Sovuq suv ta'minoti tizimining quvurlari polipropilen quvurlardan ta'minlanadi shuningdek xonadonlarda zamonaviy aqlli elektron hisoblagichlar o'rnatish ko'zda tutilgan. Loyihada hisoblagichlarni, Nasoslar o'rnatish shuningdek nasos xonasida drenaj o'rnatish ko'zda tutilgan, barcha loyihada yong'in o'chirish tizimi uchun metal quvurlar, shlang nasoslar ko'zda tutilgan. GOST 18599-01 ga oqava suvlar uchun poliyetilen quvurlar, sanitar jihozlari o'rnatish ko'zda tutilgan. Issiq suv taminoti tomda quyosh suv isitish bollerlari hamda elektr isitish qozonlaridan foydalanish ko'zda tutilgan.

Ichki elektr yoritish. Binolarni elektr yoritish KMK 2.01.05-98 va KMK 2.04.17-98 ga muvofiq ishlab chiqilgan. Kirish moslamasi sifatida shkaflar o'rnatish va taqsimlash shkaflari, boshqaruv shkaflari, Avtomatik kalitlarga ega zamonaviy aqlli elektron hisoblagichlar, yoritgichlar, o'chirib yoqgich, har bir xonadonda yorug'lik chiroqlar, rozetkalar, oshxona jihozlari va qozon uchun elektr ta'minoti, energiyani tejaydigan lampalar bilan yoritish moslamalari taqdim etiladi. Loyihada elektr qo'ng'iroqlarni o'rnatish, fasad qismida dekorativ yoritgichlar o'rnatish, elektr tokini yerga ulash, chaqmoq qaytarish jihozlari ko'zda tutilgan, shuningdek tomda quyosh elektr energiyasi ishlab chiqadigan panellar o'rnatish, aloqa tizimi va yong'indan ogohlantirish tizimlarini o'rnatish ko'zda tutilgan.

Isitish va sovutish tizimi – Bimetalik radiatorlar o'rnatish, quvurlar montaj qilish, quvurlar uchun qo'shimcha elementlar o'rnatish, metal futlayar o'rnatish, moyli bo'yoq bilan bo'yash, bitum bilan korroziyadan himoyalash ishlari bajarish, shamollatgich o'rnatish, reshotkalar o'rnatish, mo'rilar o'rnatish, shammolatgich parraklar o'rnatish ko'zda tutilgan. Shuningdek devorga o'rnatiladigan elektrda ishlovchi 7.0 kVt va 10 kVt bilan isitish ko'zda tutilgan. "AZIZA CREDO MAX "MCHJ ning 2025-yil 30-iyuldagi 30-07/30-sonli xatiga asosan quvvati 10 kVt dan ortiq bo'lganligi sababli "O'zgosenergonadzor" inpeksiyasi bilan kelishish sharti bilan ijobiy xulosa berildi. Aks holda ushbu xulosa o'z kuchini yo'qotadi.

Smeta hujjatlari. Ko'rib chiqish uchun taqdim etilgan smeta hujjatlari "SHNK" smeta resurs normalari to'plamlari bo'yicha resurs usuli yordamida joriy narxlarda tuzilgan. Smeta hujjatlari doirasida quyidagilar taqdim etiladi: lokal resurslar qaydnomasi, zarur resurslar ro'yxati, joriy narxlarda obyektning tavsiya etilgan narxini hisobkitobi. Obyektning tavsiya etilgan narxi, qurilish ishchilarining o'rtacha oylik ish haqi, pudratchining "boshqa xarajatlari" ulushi, qurilish materiallari va uskunalari narxlari, mashinalarni va mexanizmlarini ekspluatatsiyasi, qurilish

mahsulotlari uchun transport xarajatlari miqdori buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan 2025-yil 11-avgustdagi 11-08/49-sonli ma'lumotlarga asosan qabul qilindi. Tavakkalchilik koeffitsiyenti qabul qilinmasin.

Yong'inga qarchi choralar. Loyihalashtirilgan bino va inshootlarning yong'inga chidamlilik darajasi II. Loyiha odamlarni favqulodda chiqishlar orqali xavfsiz evakuatsiya qilishni nazarda tutadi. Barcha yog'och konstruktiv elementlar antiseptiklar bilan singdirilgan va olovni to'xtatuvchi moddalar bilan ishlov berilgan, qochish yo'llaridagi devorlar va shiftlar yonmaydigan materiallardan yasalgan, qochish yo'llarining eshiklari chiqish tomon ochiladigan eshiklar bilan ta'minlangan. Binolar orasidagi yong'inga qarshi tanaffuslar sanitariya me'yorlarini hisobga olgan holda ta'minlanadi, o't o'chirish mashinalarining binolarga kirishi ta'minlanadi va o't o'chirish uchun gidrantlar o'rnatish ko'rsatilgan. Bino yer to'lasida avtomatik yong'in o'chirish ko'zda tutilgan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

Loyiha ko'rib chiqildi va tasdiqlandi: Izohlarsiz buyurtmachi bilan.

Loyiha Buxoro viloyati hokimligi huzuridagi arxitektura va qurilish bosh boshqarmasi shaharsozlik kengashi yig'ilishi bayonnomasida ko'rib chiqildi.

Loyihada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.04.2024-yildagi PQ 161-sonli qarori bo'yicha qabul qilingan yechimlarning javobgarligi buyurtmachi zimmasiga yuklatiladi. (Buyurtmachining 2025-yil 15-avgustdagi 15-08/36-sonli tasdiqlangan kafolat xati).

Davlat ekologik ekspertizasining 22.04.2025-yildagi 01-02/09-1242 sonli xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko'ra qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) bilan **80 693 725 357** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

29 403 083 809 so'mga oshirilib, **110 096 809 166** so'mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **87 894 811 968** so'm

Asbob-uskunalar: **10 405 910 502** so'm

QQS: **11 796 086 696** so'm

Ekspertiza jarayonida mahalliy ekspert xulosalari bo'yicha ish tartibida loyiha hujjatlariga quyidagi

asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi:

- Poydevorlar ostidagi shag'alning balandligi, poydevorning qabul qilingan izolyatsiyasi tuzatildi.

- Qurilish materiallarining narxi tuzatildi.

Yakuniy narx buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilishni tugagandan so'ng, nazorat o'lchovi natijalari asosida aniqlanadi.

Buyurtmachi smeta hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

Mazkur obyekt buyurtmachining o'z mablag'lari hisobiga qurilayotganligi sababli, smeta qismi qurilishning sifatsiz bajarilishiga yoki byudjet mablag'lariga zarar yetishiga olib kelmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli qarorining 7-ilovasiga, 2016-yil 22-yanvardagi 15-sonli qarorining 4-ilova, II-bob 8-bandiga

muvofig va SHNK 1.03.06-13 da «Shaharsozlik hujjatlari ekspertizasi»ga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo'yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo'yicha) javobgar.

Ekspert xulosasining amal qilish muddati 2 yil.

7. Xulosalar.

Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda **“Guliston shahar, Namuna MFY, Bunyodkor ko'chasi, 152-uy hududida zamonaviy 1-qavatli savdo va maishiy xizmat ko'rsatish obyektlari bo'lgan ko'p qavatli turar-joy binolarini loyihasi”** ishchi loyihasi kelgusida ko'rib chiqib tasdiqlashga tavsiya etiladi.

Bosh ekspert: Yoshuzoqov Baxtiyor Jumageldiyevich.

Ishtirokchi ekspertlar: Nurxonov Farrux Tilloyevich, Viryaskina Zoya Petrovna, Muxammedov Timur Furkatovich, Djurayev Muxammadjon Akobirovich, Pondina Natalya Rafikovna, Kashapova Nadiya Muxtarovna, Yoshuzoqov Baxtiyor Jumageldiyevich